



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI YANGI
BOSQICHGA OLIB CHIQISH

Umarjonova Dilshoda Doniyor qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti MPL-AU-25 yoʻnalishi
talabasi*

Ilmiy rahbar: Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta oʻqituvchisi B.A. Tillayev

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini hozirgi kun talablariga javob beradigan darajada yangi bosqichga olib chiqishning muhim yoʻnalishlari keltirilgan. Bunda ta'lim sifatini oshirish, tarbiyachi pedagoglarni malakasini kuchaytirish, tur xil raqamli texnologiyalardan foydalanish va tatbiq etish shu kabi yondashuvlar nazarda tutib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: ta'lim tizimi, raqamli texnologiya, ta'lim sifatini.

Аннотация. В данной статье представлены важные направления развития системы дошкольного образования и выведения её на новый уровень, соответствующий современным требованиям. В частности, рассматриваются такие подходы, как повышение качества образования, усиление квалификации воспитателей-педагогов, а также использование и внедрение различных цифровых технологий.

Ключевые слова: качество образования, система образования, цифровая технология.

Abstract. This article presents important directions for developing the preschool education system and bringing it to a new level that meets modern requirements. In particular, it considers such approaches as improving the quality of education, strengthening the qualifications of educators, and using and implementing various digital technologies.

Keywords: quality of education, digital technology, education system.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sifatini oshirish asosiy ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. Barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlardagi



intellektual salohiyatni oshirish, har tomonlama taniqli shaxs etib tarbiyalash asosiy maqsaddir. Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u kelajak avlodni barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llash hamda bolalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, bolalar uchun qulay va rivojlantiruvchi muhit yaratish hamda pedagog kadrlarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta'lim metodlari bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, muloqot qilish va ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati ko'p jihatdan tarbiyachilarning kasbiy mahorati va pedagogik tajribasiga bog'liq. Tarbiyachi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishi, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashi hamda rivojlantiruvchi muhit yaratishi zarur. Shuningdek, bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydigan o'yin texnologiyalari, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, texnika bazalarini mustahkamlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, maktabgacha ta'lim tashkilotlar sonini ko'paytirish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar qo'shish va tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, estetik, jismoniy va axloqiy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risida bir qator qonunlar va hujjatlar qabul qilingan.

Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonunning 5-moddasida ta'kidlab o'tilganidek, har bir bola maktabgacha ta'lim va tarbiya olish huquqini amalga oshirish, bolaning



rivojlanishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish, bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olish uchun shart-sharoitlar yaratish keltirilgan.¹ Shuningdek, mazkur qonunning 2-bobida bola tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan asosiy bilimlarning mahorat va ko'nikmalarning hajmini va mazmunini belgilovchi va tavsiflovchi hujjatlar keltirilgan.²

"Maktabgacha pedagogika" darsiligida maktabgacha ta'lim ishlari mazmuni va metodlari ularni qo'llay olish chora tadbirlari ko'rsatib o'tilgan.³ Bolalarni sog'lom tarbiyalash, jamiyatda o'z o'rnini topishi MTT ning yuksak vazifalaridan biridir. Birinchi navbatda alohida sog'ligiga e'tibor qaratish zarur. Chunki sog'lom avloddan albatta yetuk shaxslar barpo bo'ladi va buyuk kelajagini qura oladi.

Insonda ta'lim tarbiya qancha erta boshlansa uning natijasi shuncha erta namoyon bo'ladi va kamol topishiga imkon yaratadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya ta'lim tizimini boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. "Maktabgacha ta'lim" tushunchasi YUNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, aytib o'tganimizdek uzluksiz ta'limni birinchi bosqichi hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham maktabgacha ta'limning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, inson hayotidagi eng muhim rivojlanish davri aynan 3–6 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. Bu davrda bolaning miya faoliyati juda tez rivojlanadi va uning kelajakdagi bilim olish qobiliyati, ijtimoiy ko'nikmalari hamda shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash har bir davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari hozirgi texnologiyalar asrida zamonaviy dasturlar, tizimlardan foydalanish dolzarb vazifalardan biriga aylanib ulgurdi. Texnologiyalar asri bo'lganligi uchun har bir pedagog zamonaviy tizimlardan foydalanishni bilishi lozim. **"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning 3-moddasida** ham shu mavzu nazarda tutilgan. Zamonaviy o'quv qo'llanmalar, texnika vositalar yaratish va ishlab chiqish.⁴ Qolaversa, YUNISEF tashkiloti Microsoft bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun o'quv matefiallaridan uzluksiz foydalanish imoniyatini beruvchi



Learning Passport/Bolalik Akademiyasi onlayn platformasini taqdim etdi. YUNICEF tomonidan olib borilgan ilmiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdagi ta'limga jalb etilgan bolalarda nutq rivoji, tafakkur faoliyati va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari ancha tez shakllanadi. Bunday bolalar maktab ta'limiga o'tish jarayonida kamroq qiyinchiliklarga duch keladi hamda o'qish jarayoniga tezroq moslashadi. Shuningdek, ular o'z fikrini erkin ifoda etish, jamoada ishlash va mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni ham osonroq egallaydi. Tashkilot mutaxassislari maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur'ati turlicha bo'lganligi sababli ta'lim jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bolalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash ham maktabgacha ta'lim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish biroz murakkabroq bo'lishi mumkin ammo bu dastur ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari soni kamayib ketdi, bolalarning juda kam qismi bog'chalarga qamrab olingan. Bu tizimni tubdan isloh qilish zarur" deb ta'kidlab o'tganlar.⁵ Prezidentimiz 2018-yil 16-fevralda Buxoro shahridagi 54-maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurganida ham shu sohada islohotlar haqida gapirgan. U yerda bog'chalarda sharoitlarni yaxshilash, tarbiyachilar malakasini oshirish bo'yicha topshiriqlar bergan. Yuqorida keltirilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolaning erta yoshdagi rivojlanish davri uning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish hamda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadigan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi. 2019-yil 22-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 2-bobi. 2019-yil.
3. F. Qodirova "Maktabgacha pedagogika". Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti. 2019-yil
4. " **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** " 3-moddasi
5. Mirziyoyev. Sh.M 2017-yil 20- dekabr Toshkentdagi videoselekt yig'ilishidagi nutq.